

# Ayyub

payg'ambar qissasi



*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.*

**NUUR**

TARJIMONLAR  
GURUHI

# Ayyub

## payg'ambar qissasi



**Özkan Öze**  
**Rassom: Sevgi İçigen**


*Bu kitobdagi rasmlarda payg'ambarlarning yuzlarini ko'ra olmaysiz. Chunki musulmonlar payg'ambarlarga bo'lgan hurmatlari tufayli ularning rasmlarini chizmaydilar.*







Ancha vaqtlar oldin, hozirgi Suriya taraflarda go'zal bir shahar bo'lgan. Tuprog'i barokatli, havosi toza va suvi juda mazali edi. Ayyub bu go'zal shaharning eng boy odami edi.





Vodiylarni to'ldirgan qo'y podalari, hosili tugamaydigan uzumzorlari va bog'lari, har biri bir-biridan go'zal, sog'lom farzandlari va shular bilan birga uning qalbi pok bir ayoli, baxtga to'la uyi ham bor edi. Ayyub ham xuddi ajdodlaridan bo'lgan Ibrohim alayhissalom kabi jo'mard (saxiy) odam edi. Va Alloh uni ham payg'ambar qilib tanladi.






Ochlarni ovqatlantirar, kiyimsizlarni kiyintirar, muhtojlarga g'amxo'rlik qilardi. Va u shokir (ko'p shukur qilguvchi) bandalardan edi. Unga berilgan shuncha boylik uchun u kecha-yu kunduz Allohga shukur qilardi. U qanchalik ko'p shukur qilgani sayin Alloh unga yana shuncha ko'p berar, Ayyub payg'ambar esa undan-da ko'p Allohga shukur qilishga harakat qilardi.





Ayyub alayhissalomning bunday yaxshi banda ekanligi, ba'zilarni hasadini keltira boshladi. “Agar biz ham shunchalik boy bo'lganimizda, ertadan kechgacha Xudoga shukur qilardik, kambag'allarga ham yordam bergan bo'lardik”, - deb aytishayotgan edi... Ajabo, haqiqatdan ham shunday bo'larmidi?!







**Qiziq, Agar Ayyub payg'ambar kambag'al bir inson bo'lganida, Robbisiga shunday shukur qiladigan banda bo'lmasmidi?! Alloh farishtalarga va odamlarga aslida uning qanday banda ekanligini ko'rsatishni xohladi.**



Va uning vodiylarni to'ldirgan hayvonlariga kutilmagan bir kasallik tegdi. Qo'zilar, sigirlar, otlar va tuyalarning hammasi nobud bo'ldi... Ammo Ayyub sabrlilardan bo'ldi. "Alloh berdi, Alloh oldi",- dedi. Keyin keng dalalar, uzumzorlar va bog'lar qurib qoldi. Ammo Ayyub payg'ambar sabrli banda bo'ldi. Uning oilasi juda qattiq faqirlikka duch keldi. Va bir kuni ularning uylari vayron bo'ldi.






Ayyub payg‘ambarning barcha bolalari halok bo‘ldi. Ayyub yig‘ladi. U juda ham ko‘p yig‘ladi. Ammo u sabrli banda bo‘lishda davom etdi. “Alloh berdi, Alloh oldi”, - dedi... Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, Alloh taolo Ayyub payg‘ambarga bir xastalik berdi. Kasallik juda og‘ir edi.



Ayyub payg'ambarning yonida xotinidan boshqa hech kim qolmadi. Hamma uni tark etdi. Yillar shunday azob va iztiroblarga to'la o'tdi. U shunday ulkan bir sabr qahramoni edi. Umuman ahvolidan shikoyat qilmayotgan edi.





Iblis uning bu holatidan qattiq g'azablanayotgandi. U nimadir qilishi, Ayyubni Allohning zikri (eslashi)dan va Unga shukrona aytishidan qaytarishi kerak edi. Ammo uni aldashni uddasidan chiqolmayotgan edi.



Shunday qilib u Ayyub payg'ambarning xotinini aldashga qaror qildi. Va bir erkak qiyofasida uning oldiga chiqdi. " Menga qara qizim, eringga ayt, Allohni zikr qilishni to'xtatsin. Chunki u "Alloh!" degani sayin, dardlari borgan sari ko'payib borayapti",- dedi.






**"Agar u Allohga iltijo qilishlarini to'xtatsa, Alloh ham uni o'z holiga qo'yadi. Uning kasalligi tuzalib ketadi", - dedi. Ayyubning xotini unga unchalik ishonmadi. Ammo shubhalanib qoldi. Uyiga borib barchasini Ayyubga aytib berdi.**







Ayyub payg'ambar juda g'azablandilar.  
Birinchi marta xotinidan bunchalik jahli chiqayotgan  
edi. "Bular shaytonning so'zlari!"- dedi. Va u endi  
yolg'iz qolishni xohlayotganini aytdi ... Xotini uni  
yolg'iz qoldirib o'zi ketib qoldi...  
Kunlar shunday o'tib borardi.





Ayyub sabr ila Allohni eslashdan charchamasdi. Va u faqat Undan yordam so'rar edi. Bir kuni Alloh taolo Ayyub payg'ambarga: "Oyog'ingni yerga ur!" - deb buyurdi. Ayyub payg'ambar oyog'ini yerga urdi.





Yerdan toza, salqin va  
shifobaxsh suv chiqdi.  
Ayyub bu suvdan ichdi, yuvindi.



A watercolor illustration showing a large, warm-toned hand reaching down to hold a smaller foot. Below the hand and foot, there is a blue, wavy shape representing water or a stream, with several grey and blue stones scattered in it. The background is a mix of yellow and light blue washes.

**Qancha kasalligi bo'lsa, hammasidan  
shu onda tuzaldi. Uning barcha yaralari  
bitdi. Bu Allohning mo'jizasi edi. Alloh  
taolo Ayyub payg'ambarga shifo  
bergandi.**



Ayyub payg'ambarning xotini eridan havotir olib, uyiga qaytdi. Ammo eri yotog'ida yo'q edi. Chap - o'ngiga boqib erini qidirishni boshladi va erini topganida u oldingidan ham sog'lom va baquvvat ko'rinardi. Bu Allohning buyuk bir mo'jizasi edi. Bu ajoyib mo'jiza edi.





Ayyub payg'ambar, sog'ligi bilan birga  
oldingidek boylikga ham ega bo'ldi.  
Alloh unga yangidan barakotli boylik berdi.  
Qo'sha - qo'sha otlar, suti mo'l sigirlar va  
tuyalar... Keng va uzun dalalar...



Ular yana sog'lom va bir - biridan go'zal  
farzandlar ko'rishdi. Xalqi orasida so'ziga  
itoat qilinadigan buyuk payg'ambar bo'lib  
yashadi. U qanday ham yaxshi banda edi!  
Doimo Allohga yuzlanardi.





**Bu sabr va qanoat qahramoni  
Ayyub payg'ambarning hikoyasidir.  
Va qanday ham go'zal va ibratli hikoya...**



TARJIMONLAR  
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur\_uz